ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

Professor Ibodulla Mirzayev ilmiy maktabining shakllanishi va taraqqiyoti 7

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ ПАНЖИЕВИЧ
Инициальные консонантные кластеры в современном узбекском языке: инвентарь, структурные типы и статистическая представленность (в сопоставлении с русским языком) 13

UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH
Til – madaniyat ko‘zgusi 18

IBRAGIMOV JASURBEK TO‘LQINJON O‘G‘LI
Epitet tematikasi (“Alpomish” dostoni misolida) 23

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Морфологические категории арабского языка в когнитивной интерпретации эпохи NAHḌA 27

SULEYMANLI ATILLA NAZIM O‘G‘LU
Ozarbayjon ma’rifatparvarligi va o‘zbek jadidchiligida milliy o‘zlikni anglash g‘oyasining genezisi 33

SAMANDAROVA GULHAYO ERKIN QIZI
Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilining rivojlanish tendensiyalari 42

QURBANBAYEVA NILUFAR ILXAMOVNA
O‘zbek va ingliz tillarida olqish, duo va tilak so‘zlarining lingvokulturologik xususiyatlari 47

KARIMOV ABDULATIF ABDUG‘AFOROVICH
Til tizimini maydonlar orqali tushunish g‘oyasining vujudga kelishi 52

XURSANOV MAXMUD G‘AYRAT O‘G‘LI
Termiz shahri ko‘cha nomlarining yasalish xususiyatlari 59

МУНДАРИЖА

TURG‘UNOVA MAFTUNAXON JAMOLDIN QIZI
Topishmoqlarni tasniflash muammolari 63

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
«Vaqt» konseptining badiiy ifodalanishi 67

JUMANOVA ORZIGUL
Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanidagi maqollarning
inglizcha tarjimalarida lingvomadaniy konseptlarning ifodalanishi 71

IKROMOVA CHAROSXON
G‘afur G‘ulom «Shum bola» asaridagi monosemantik
va polisemantik so‘zlar tahlili 75

QURBONOVA KAMOLA ABDURAHMONOVNA
Kognitiv tilshunoslikda “Figura-fon” tamoyili haqida 78

ADABIYOTSHUNOSLIK

OTAQULOVA DILDORA OYBEK QIZI
Tesha Saydaliyev she'riyatida mavzu va g‘oya uyg‘unligi 81

ЭШОНҚУЛОВ ИЛҲОМ АБДУСАЛОМОВИЧ
Мирсиддиқхон Ҳашмат тазкираларининг илмий
аҳамияти ва адабий қиймати 84

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA "FIGURA-FON" TAMOYILI HAQIDA

Qurbonova Kamola Abdurahmonovna,
Namangan davlat universiteti talabasi

Tilshunoslik va kongnitivistika sohalarini o'zida jamlagan yo'nalish bo'lmish kognitiv tilshunoslik rivoji tilshunoslikka yangicha yondashuvni ta'minlaydi. Ushbu yo'nalishni ham boshqa barcha sohalar singari o'zi ish ko'ruvchi maxsus terminlari mavjud bo'lib, bu yo'nalishni chuqurroq tushunishga va tadqiq etishga yordam beradi. Shunday terminlardan biri sifatida "figura-fon" tamoyilini ko'rish mumkin.


Figura-fon tamoyili kognitiv tilshunoslikning asosiy nazariy tushunchalaridan biri bo'lib, insonning borliqni idrok etish va uni lisoniy vositalar orqali konseptuallashtirish mexanizmlarini tushuntirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur tamoyilning nazariy asoslari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan geshtalt psixologiyasiga borib taqaladi. Maks Vertgeymer, Volfgang Kohler va Kurt Koffka tomonidan ishlab chiqilgan ushbu yo'nalish vakillari inson idroki alohida qismlarni emas, balki yaxlit tuzilmalarni qabul qilishini ta'kidlaganlar. Geshtalt nazariyasiga ko'ra, idrok jarayonida obyekt va uning atrofidagi muhit o'rtasida tabiiy ravishda figura va fon munosabati shakllanadi.

Kognitiv tilshunoslikda figura-fon tamoyili til birliklari orqali voqelikning qanday konseptuallashtirilishini izohlash uchun qo'llaniladi. Bu yondashuvga ko'ra, inson biror vaziyatni idrok etganda uning ayrim elementlarini asosiy, e'tiborni tortuvchi obyekt sifatida ajratadi va ular figura vazifasini bajaradi. Qolgan elementlar esa fonni tashkil etib, figuraning idrok qilinishi uchun zarur bo'lgan konseptual makonni hosil qiladi. Shunday qilib, figura va fon bir-biridan mustaqil hodisalar emas, balki o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etuvchi kognitiv kategoriyalardir. Figura-fon tamoyili insonga nutqdagi asosiy va ikkilamchi ma'lumotlarni aniqlashda yordam beruvchi kognitiv tuzilmadir[1]. Inson idroki har qanday qabul qilingan ma'lumotni avtomatik ravishda figura-fon shaklida ajratishga moyil bo'ladi. Figura – bu olingan ma'lumotdagi dominant shakl hisoblanadi. Fon esa manzaraning orqa qismiga surib qo'yilgan qismdir. Masalan, "velosiped uy yonida" jumlasida "velosiped" – figura, "uy" – fondir.[2] Jumla o'zgartirilib, "uy velosiped yonida" shaklida ifodalansa, mantiqiy aniqlikka putur yetadi. Inson idroki figurani fonga qarab qabul qiladi, fon o'zgarsa, figuraga bo'lgan umumiy munosabat ham o'zgaradi. Masalan, "Guldor eshik ochilib, xushbichim ayol, qizaloq va it ko'rindi" jumlasi va "shahar xarobalari orasida kezib yurgan it" jumlasida it haqidagi umumiy tasavvur fonga qarab, farqlanadi. Birinchi jumlani eshituvchilar tasavvurida muloyim kuchuk gavdalanadi, ikkinchisida esa qo'lga o'rgatilmagan yovvoyi it tushuniladi. Figura va fondagi elementlar birlashib, geshtaltni hosil qiladi. Geshtaltdagi figura va fon idrokiy hodisasi Kohler va Koffka tomonidan o'rganilgan.[3]

Kognitiv tilshunoslikda figura-fon munosabatlari tilning turli sathlarida namoyon bo'ladi. Jumladan, gap semantikasida harakat ishtirokchilari, makon va zamon munosabatlari figura hamda fon tamoyili asosida tashkil topadi. Xususan, fazoviy munosabatlarni ifodalovchi birliklarda hajman kichikroq, harakatlanuvchi yoki kommunikativ jihatdan muhim obyekt figura sifatida namoyon bo'lsa, unga nisbatan barqarorroq va kattaroq obyekt fon vazifasini bajaradi. Shu jihatdan kognitiv tilshunoslikda keng qo'llanadigan "trayektor" va "orientir" tushunchalari mos ravishda figura va fon kategoriyalariga yaqin hisoblanadi. Til birliklarining kommunikativ vazifasi ham figura-fon tamoyili bilan chambarchas bog'liq. Matn yoki diskurs tarkibida ayrim axborotlar oldinga chiqarilib, kommunikativ markazni tashkil etsa, boshqa axborotlar ikkinchi darajali ma'lumot sifatida fonni hosil qiladi. Shu sababli kognitiv stilistikada figura-fon munosabatlari oldinga chiqarish (foregrounding) hodisasi bilan uzviy aloqada qaraladi. Bunda figura matnning asosiy semantik yukini tashuvchi qism bo'lsa, fon mazkur ma'noni to'ldiruvchi va uni idrok etishga xizmat qiluvchi kontekst sifatida namoyon bo'ladi. Konseptual tuzilmalarni shakllantirish jarayonida inson diqqati muayyan obyekt yoki belgiga qaratiladi, qolgan elementlar esa fon sifatida qabul qilinadi. Natijada konseptualizatsiya va kategoriyalashtirish jarayonlari

[1] Qurbonova K. Kognitiv tilshunoslikka oid atamalarning izohli lug'ati. – Namangan: Mashrab, 2026. – B. 10
[2] Osmańska-Lipka I. Elements of Gestalt Psychology in American Cognitive Linguistics// Annales Universitatis Mariae Curie-Skłodowska. Sectio FF, Philologiae. Vol. 30, 2, 2012. – P.66
[3] Kwiatkowska A. Gestalt principles in linguistics//Acta Universitatis Lodziensis. Folia Linguistica 36, 1997. – P.185

figura-fon tamoyili asosida amalga oshadi. O'zbek tili materiallari ham mazkur tamoyilning universalligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, makon va harakat munosabatlarini ifodalovchi sintaktik qurilmalar, predikativ birliklar hamda matnning tema-rema tuzilishida figura-fon munosabatlari yaqqol kuzatiladi. Gapning kommunikativ markazida turgan unsur figura vazifasini bajarsa, qolgan komponentlar uning semantik va pragmatik talqinini ta'minlovchi fonni tashkil etadi. Bu esa til birliklarining tashkil topishi va qo'llanishida insonning kognitiv tajribasi muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Shunday qilib, figura-fon tamoyili kognitiv tilshunoslikning muhim metodologik vositalaridan biri bo'lib, u inson idroki, konseptualizatsiya, kategoriyalashtirish hamda tilning semantik va pragmatik xususiyatlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi. Ushbu tamoyil til hodisalarini faqat formal tuzilma sifatida emas, balki insonning bilish faoliyati mahsuli sifatida talqin qilish imkonini yaratadi va zamonaviy kognitiv tadqiqotlarning muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Figura-fon tamoyilining yorqin namunasini quyidagi shaklda ko'rish mumkin:



Rubinning vazasi deb ataluvchi ushbu tasvirda oq va qora maydonlar o'rtasida figura va fonning almashinuvi kuzatiladi. Agar kuzatuvchi tasvirning oq qismini figura sifatida qabul qilsa, markazda joylashgan vaza yoki qadah ko'rinadi, qora qismlar esa fon vazifasini bajaradi. Aksincha, qora qismlar figura sifatida idrok etilganda, oq maydon fon bo'lib qoladi va tasvirda bir-biriga qarab turgan ikki inson yuzi profili namoyon bo'ladi. Mazkur hodisa figura va fonning qat'iy emasligini, balki idrok jarayonida dinamik ravishda almashib turishini ko'rsatadi. Tasvirdagi bitta vizual element bir vaqtning o'zida ham figura, ham fon bo'la olmaydi; inson diqqati qaysi qismga yo'naltirilsa, o'sha qism figura maqomini oladi. Shu sababli Rubin vazasi idrokning faol va konstruktiv xususiyatga ega ekanligini namoyish etadi. Kognitiv nuqtayi nazardan, bu tasvir ma'noning obyektning o'zida emas, balki uni qabul qiluvchi subyektning diqqat markazi va konseptual talqinida shakllanishini ko'rsatadi. Shuning uchun Rubin vazasi figura-fon munosabatlarining o'zgaruvchanligi, ko'p ma'nolilik va inson idrokining selektiv tabiatini ifodalovchi klassik model hisoblanadi.

Figura-fon tamoyilining faqat nutq hodisasiga aloqador jihati profil-asos tushunchasida ko'rinadi. Profil-asos (o'zak-negiz) kognitiv tuzilmasi domenlar nazariyasiga ko'ra bilim ifodasini tavsiflovchi tushuncha hisoblanadi. Lingvistik birlikning profili (o'zak qismi) uning semantik tuzilmasidagi e'tibor qaratilgan va bevosita til orqali ifodalangan qismdir. Negiz qismi esa diqqat markazida bo'lmagan, biroq o'zakni tushunish uchun zarur bo'lgan semantik kontekstdir. Masalan, "o'qituvchi" leksemasi insonlarga bilim berish faoliyati bilan shug'ullanuvchi muayyan shaxsni profillaydi. "O'qituvchi" so'zining ma'nosi faqat o'q(it) ish faoliyati kontekstida anglashiladi. Demak, o'q(it) ish jarayoni – o'zak, o'qituvchi esa shu o'zak asosida yasalgan element hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, figura-fon munosabati har doim ikki tomonlama va nisbiy xarakter kasb etadi, ya'ni bir kontekstda figura bo'lgan obyekt boshqa kontekstda fonga aylanishi mumkin. Bu esa til vositalarining ma'no tuzilishi statik emas, balki kontekstga qarab shakllanadigan dinamik hodisa ekanligini ko'rsatadi. Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan bu holat tilning inson bilish faoliyatidan ajralmasligini, til tuzilmalarining bevosita kognitiv mexanizmlarga asoslanishini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, figura-fon tamoyili kognitiv tilshunoslikning muhim nazariy tushunchalaridan biri bo'lib, insonning borliqni idrok etishi va uni til vositasida ifodalash mexanizmlarini yoritishga xizmat qiladi. Ushbu tamoyil geshtalt psixologiyasi g'oyalariga asoslanib, til birliklarining semantik va pragmatik xususiyatlarini kognitiv nuqtayi nazardan izohlash imkonini beradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, figura va fon munosabatlari gap semantikasi, matn tuzilishi hamda konseptualizatsiya jarayonlarida muhim o'rin tutadi. Shu bois figura-fon tamoyili kognitiv tilshunoslikda til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etishning samarali nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

Rezyume. Mazkur maqolada kognitiv tilshunoslikning asosiy nazariy tushunchalaridan biri bo'lgan figura-fon prinsipi lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu tamoyilning geshtalt psixologiyasidan kognitiv tilshunoslikka o'tish jarayoni ko'rib chiqilib, figura-fon munosabatining gap semantikasi va grammatik vositalar bilan bog'liqligi o'zbek tili materiallari misolida ko'rsatib o'tiladi. Tahlil natijasida figura-fon tamoyilining universal kognitiv asos kasb etishi va til tuzilmalarining bevosita inson bilish faoliyatiga tayanishi asoslab beriladi.

Resume. This article analyzes the figure–ground principle, one of the fundamental theoretical concepts of cognitive linguistics, from a linguistic perspective. The study examines the transition of this principle from Gestalt psychology to cognitive linguistics and demonstrates the relationship between figure–ground organization, sentence semantics, and grammatical means using examples from the Uzbek language. The findings substantiate the universal cognitive basis of the figure–ground principle and show that linguistic structures are directly grounded in human cognitive processes.

Резюме. В данной статье с лингвистической точки зрения анализируется принцип «фигура-фон», являющийся одним из основных теоретических понятий когнитивной лингвистики. В исследовании рассматривается процесс перехода данного принципа из гештальт-психологии в когнитивную лингвистику, а также на материале узбекского языка показана взаимосвязь отношений «фигура-фон» с семантикой предложения и грамматическими средствами. В результате анализа обосновывается универсальная когнитивная природа принципа «фигура-фон» и доказывается, что языковые структуры непосредственно опираются на познавательную деятельность человека.